



OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Quvvatova M.H.

*Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim nazariyasi
ilmiy darajali katta o'qituvchi*

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, kreativlig, pedagogik yo'nalish, Ijodkorlik, divergent, kompetensiya.

Ключевые слова: знания, умения, навыки, креативность, педагогическая направленность, креативность, дивергентность, компетентность.

Key words: knowledge, skills, skills, creativity, pedagogical orientation, creativity, divergence, competence.

Kirish. Bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalishlari-mavjud an'anaviy ta'lim paradigmasining obyektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyatlarni modernizasiyalashdan iborat etib belgalandi. Ushbu o'rinda, ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi paradigmani yaratish zaruriyati namoyon bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari,[1] kadrlar ta'minoti kabi jihatlarni keng ko'lamda aks ettiruvchi ta'lim muammolarini alohida dolzarb masala sifatida oldingi o'ringa olib chiqishni ko'rsatmoqda. [1] Bu esa ta'lim jarayonida "o'qituvchi va ta'lim oluvchi" munosabatlarini insonparvarlashtirish, iqtidorni erkin namoyon qilish, mustaqil ijodiy izlanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish va shaxsga yo'naltirish orqali o'quv jarayonini mustaqil tashkil etib, boshqaruvchi, har bir ta'lim oluvchi shaxsining ijodiy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talablarni vujudga keltirdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lib, pedagogik ta'lim talabalari kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shartlarni nazariya jihatdan asoslash hisoblanadi.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, muayyan jarayonda biror narsani belgilovchi holatlar tushuniladi. Bularga ta'lim



jarayonida ataylab yaratilgan va uning samaradorligini ta'minlaydigan narsalar kiradi, chunki uning paydo bo'lishi va borishi uchun eng qulay muhitni tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda jamiyat va ta'limda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'zgartirishni va idrok etish, kognitiv faollik, moyillik, ehtiyoj va qiziqishlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni individuallashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Pedagogikada shart-sharoitlar, hodisalarning sabablarini o'zlarida bo'lmay, ayni vaqtda sababning ta'sirini mustahkamlaydi yoki kuchsizlantiradi. Bunday pozitsiyalardan shartlar pedagogik tizim faoliyatining samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar, holatlar sifatida belgilanadi. Zamonaviy didaktika sharoitni ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar, o'quv jarayonining tarkibiy qismlari majmui sifatida talqin etadi. Ta'lim nazariyasida sharoitni muayyan pedagogik jarayonlar sodir bo'ladigan muhit deb qarash odat tusiga kirgan

V.I.Andreyevaning[4] fikricha, tarbiya nazariyasida qabul qilingan shart sharoitlar muayyan pedagogik jarayonlar ishtirok etuvchi muxit sifatida qabul qilinadi..

Pedagogik shart-sharoitlar didaktik maqsadlarga erishish uchun mazmun elementlari, metodlari (texnologiyasi), shuningdek, o'qitishning tashkiliy shakllarini maqsadli tanlash, loyihalashtirish va qo'llash natijasidir.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida muhim ilmiy natijalardan biri sifatida oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni texnologiyasi iqtidorni erkin namoyon qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini individuallashtirish, mustaqil ijodiy izlanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish hamda kasbiy-motivatsion faoliyatning yaratuvchanlik, analitik va sintetik tafakkur parametrlarini izchil aniqlashga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan.

Iqtidorni erkin namoyon qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini individuallashtirish iqtidorning kreativlikdagi ahamiyatini asoslash orqali amalga oshiriladi.

V.N.Drujininning [3] fikricha, kreativlik umumiy ijodiy qobiliyatdir, insonni bir butun sifatida tavsiflaydi, faoliyatning turli sohalarida namoyon bo'ladi, iqtidorning nisbatan mustaqil omili sifatida qaraladi.

Iqtidorni umumiy ijod qonuniyatlari bilan bog'lab o'rganish mumkin. Iqtidorni ijod aspektlaridan biri sifatida o'rganish uning erkin namoyon bo'lishining barcha noaniqligi va murakkabligini kuzatishga yordam beradi.

Shaxsning har tomonlama kamolga yetishi – ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlardagi individ qobiliyati va iqtidori, uning bioijtimoiy mohiyatlarini tashkil

qiladigan hamma kuchlarni to'liq rivojlantirishdan iboratdir. Shaxsda muayyan belgilar, sifatlar, fazilatlar (ba'zan ayrim illatlar, nuqsonlar) shakllangach, rivojlanish jarayoni boshlanadi[3].

Bo'lajak pedagogni kasbiy faoliyatga jalb qilish ijodiy potentsialni maksimal darajada ro'yobga chiqarish, kasbiy bilimlarni kengaytirish, faol harakatlarga yo'naltirilgan kasbiy voqelikka qo'shilish zarurati, ularning natijalari uchun aks ettirish, iqtidorni erkin namoyon qilish va javobgarlikni ta'minlaydi. [4]

Zamonaviy oliy ta'limda iqtidorli kasb egalarini yetishtirib berish uchun o'qitishning uslublarini qayta shakllantirish talab qilinadi [4]

Iqtidorni erkin namoyon qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini individuallashtirish – o'qituvchining o'zi muammoli vaziyatni o'rta tashlaydi, ta'lim muammosini ajratib qo'yishi hamda uni hal qilishga olib keladigan faktlarni ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Talabalar o'qituvchining tushuntirishini idrok etadilar, muammoli vaziyatda harakatlar na'munasini o'rganadilar, reproduktiv xarakterdagi vazifalarni, mashqlarni bajaradilar.

Iqtidorni erkin namoyon qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini individuallashtirishda individual o'qitish, individual o'qitishning afzalliklari, individuallashtirilgan o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi tushunchalarining mazmuni va imkoniyatlarini aniqlashtirishni talab qiladi. Zamonaviy o'qitish tizimining asosiy o'zagi - o'qitishni individuallashtirish deb hisoblash mumkin. Shuning uchun o'qitishni individuallashtirish, mustaqil ta'lim, masofaviy o'qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi. Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi[3]:

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

c) o'qitishni individuallashtirish;

d) uzluksiz bilim olish qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni, ijod bilan ishlashni, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos epchiUikni shakllantirish.

Individual o'qitish - bu o'quv jarayonini tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog talabalar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, talaba o'quv vositalari yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi. Individual o'qitishning afzalliklari: pedagogik jarayonning talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi. Individuallashtirilgan o'qitish bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va



turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi - bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi. o'qitishning barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarida u yoki bu darajada individual yondashish qo'llaniladi, ammo individuallashtirilgan o'qitishda individuallashtirish o'quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individuallashtirilgan o'qitishning asosi talabning individual-pedagogik xususiyatlarini o'rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida o'qitish usuli tanlanadi. Qabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va tamoyillarga ko'ra o'qitish jarayoni amalga oshiriladi[2].

Demak, oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni texnologiyasini takomillashtirishda iqtidorni erkin namoyon qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini individuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni texnologiyasini takomillashtirishda mustaqil ijodiy izlanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish masalarini ham qarab chiqildi.

Mustaqil ijodiy izlanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish - bu oldingi bilimlarni yangi o'quv vaziyatida qo'llash bilan tavsiflanadi. O'qituvchining o'zi muammoli vaziyatni tashkil qiladi, so'ngra talabalar bilan birgalikda muammoni tuzadi; birgalikda gipotezalarni ilgari suradilar, yagona to'g'risiga qaror qiladilar, yechimlarni belgilaydilar, faktlarni muhokama qiladilar.

Talabalarining kreativligi deganda o'rganish motivatsiyasiga asoslangan, pedagogik jarayonlarni bilish, fikrlashning ravonligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan, kelajakda kasbiy-motivatsion faoliyatda kreativ natijalarga erishish uchun nostandart hamda funksional g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyatida namoyon bo'ladigan transformatsion faoliyat qobiliyati tushuniladi.

Tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlari individual xususiyatlarni effektiv aniqlash va pedagogik jarayon dinamikligini ta'minlashga qaratilgan o'z-o'ziga motivatsiya berish, GESTalt psixologiyasi va inson, jamiyat atrof muhitga bog'liq o'zgaruvchi jarayonga bo'lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish asosida takomillashtirilgan bo'lib, bunda talabalarning individual xususiyatlari alohida o'rganilgan.

Kreativlikni to'rt jihatga ko'ra muvofiq tasniflaymiz. Ijodiy jarayon, ijodiy mahsulot, ijodkor inson hamda ijodiy muhit. Kreativ jarayonga qo'shilish orqali shaxs ijodiy muhitda faollashadi, kreativ shaxs xususiyatlariga ega bo'ladi, shundan so'ng esa ijodiy mahsulotda faollashadi.



Yuqoridagi barcha tahlillarga ko'ra, tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni texnologiyasini iqtidorni erkin namoyon qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini individuallashtirish, mustaqil ijodiy izlanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish hamda kasbiy-motivatsion faoliyatning yaratuvchanlik, analitik va sintetik tafakkur parametrlarini izchil aniqlashga ustuvorlik berish orqali takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar:

1. Nodirjon Azamatovich Jalilov Harbiy ta'lim fakultetlari talabalarining kreativ sifatlarini rivojlantirish Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. – T., 2007. – 315 b.
3. Adolf, V.A., Stepanova I.Yu. Raqobatbardoshlik oliy kasbiy ta'lim sifati ko'rsatkichi sifatida. // V.A. Adolf, I.Yu. Stepanova / Rossiyada oliy ta'lim, 2007, No 6. P. 77-79.
4. Adolf, V.A. Mutaxassisning malakasini oshirishning o'quv jarayonini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida loyihalash. // V.A. Adolf, I.Yu. Stepanova / Rossiyada oliy ta'lim. No 3. 2008. S. 158-161.

РЕЗЮМЕ

Bo'lajak pedagogik ta'lim bakalavriatlarining kreativligini rivojlantirish jarayoni yetarli bilim, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lmaganligi sababli ilmiy asoslash va uslubiy ta'minlashni talab qiladi. Shuning uchun ham shu maqolamizni shu mavzuda bayon etishga harakat qildik. Bo'lajak talabalarning kreativligini qanday rivojlantirish kerakligini bilib olishimiz mumkin. Metodologik yondashuv vakillari ijodkorlikni funktsiya sifatida tushunadilar muammoli vaziyatlar va aniqlash kreativlik bo'ylab muammoni hal qilish jarayonining xususiyatlari. Rus olimlarining asarlarida ijod ijtimoiy hodisa va rivojlanish mexanizmi, tabiat va jamiyatga xos xususiyat sifatida tushuniladi. Ijodkorlikning asosiy xususiyati yangi, o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyatidir.

РЕЗЮМЕ

Процесс развития творческих способностей будущих бакалавров педагогического образования требует научного обоснования и методического обеспечения из-за отсутствия достаточных знаний, теоретической и практической значимости. Вот почему мы постарались объяснить эту статью на эту тему. Мы можем научиться развивать творческие способности будущих учеников. Представители методологического подхода понимают креативность как функцию проблемной ситуации и выявляют особенности процесса решения проблем через креативность. В работах российских ученых творчество понимается как социальное явление и механизм развития, свойственный природе и обществу. Основная особенность творчества – способность создавать новые, уникальные вещи.

SUMMARY

The process of developing the creative abilities of future bachelors of pedagogical education requires scientific justification and methodological support due to the lack of sufficient knowledge, theoretical and practical significance. That's why we tried to explain this article on this topic. We can learn how to develop the creative abilities of future students. Representatives of the methodological approach understand creativity as a function of the problem situation and identify the features of the problem-solving process through creativity. In the works of Russian scientists, creativity is understood as a social phenomenon and a mechanism of development peculiar to nature and society. The main feature of creativity is the ability to create new, unique things.